

XXI ASR GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MINTAQAVIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING TRANSFORMATSIYASI

R.Z. Qayumov –

IIV profilaktika inspektori.

Annotatsiya. Mazkur maqola XXI asr global beqarorlik sharoitida mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining nazariy transformatsiyasini tahlil qiladi. Tadqiqot mintaqaviy xavfsizlikka oid an'anaviy davlat-markazli yondashuvlarning zamonaviy ko'p qatlamli tahdidlarni tushuntirishda cheklanganligini asoslaydi. Maqola konseptual tahlil va nazariy taqqoslash metodlari asosida turli nazariy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qiladi. Natijada mintaqaviy xavfsizlik global, mintaqaviy va milliy darajalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mahsuli bo'lgan dinamik jarayon sifatida talqin etiladi. Tadqiqot mintaqaviy xavfsizlikni tahlil qilish uchun transformatsiyalashgan nazariy modelni taklif etadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy xavfsizlik, global beqarorlik, xavfsizlik transformatsiyasi, nazariy yondashuvlar, post-pozitivistik paradigma, ko'p qirrali xavfsizlik.

Abstract. This article analyzes the theoretical transformation of the concept of regional security under conditions of global instability in the twenty-first century. It argues that traditional state-centered approaches are insufficient to explain contemporary, multidimensional security challenges. Using conceptual analysis and theoretical comparison, the study examines competing theoretical perspectives in security studies. The findings conceptualize regional security as a dynamic process shaped by interactions across global, regional, and national levels. The article proposes a transformed theoretical model for analyzing regional security in an era of persistent global instability.

Key words: regional security, global instability, security transformation, theoretical approaches, post-positivist perspective, multi-level security.

Kirish. XXI asr oxirgi 5 yillikda xalqaro tizim chuqur va tizimli beqarorlik holatiga kirib bormoqda. Global miqyosda geosiyosiy raqobatning kuchayishi, qurolli mojarolarning hududiy chegaralardan chiqib ketishi, iqtisodiy va energetik inqirozlarning siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘lanib borishi mavjud xalqaro xavfsizlik strukturasining samaradorligini shubha ostiga qo‘ymoqda [8. Buzan, B., & Wæver, O. (2003)]. Ushbu sharoitda xavfsizlik masalasi endilikda faqat davlatlararo harbiy qarama-qarshiliklar bilan izohlanmay, balki murakkab, ko‘p qatlamli va o‘zaro bog‘liq tahdidlar majmuasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Global beqarorlikning kuchayishi xavfsizlikni ta‘minlashning universal mexanizmlariga bo‘lgan ishonchni zaiflashtirib, mintaqaviy darajadagi hamkorlik va muvofiqlashtirilgan yondashuvlarning ahamiyatini oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy xavfsizlik tushunchasi global xavfsizlikning muqobil yoki qo‘shimcha tayanch elementi sifatida tobora ko‘proq e‘tiborni tortmoqda [1. Acharya, A. (2014)]. Mintaqalar endilikda faqat geografik birlik emas, balki umumiy tahdidlar, manfaatlar va normativ qarashlar bilan bog‘langan siyosiy makon sifatida shakllanmoqda.

An‘anaviy xavfsizlik nazariyalarida mintaqaviy xavfsizlik asosan davlat markazli, harbiy-siyosiy muvozanatga asoslangan model orqali talqin qilingan. Biroq zamonaviy global beqarorlik sharoitida bunday yondashuvlar yetarli izoh berish imkoniyatini yo‘qotmoqda. Transmilliy tahdidlar, iqlim o‘zgarishi, majburiy migratsiya, kibermakon xavfsizligi kabi omillar mintaqaviy xavfsizlikning mazmunan kengayishini va qayta talqin qilinishini taqozo etmoqda [24. United Nations. (2023)]. Natijada xavfsizlik subyekti sifatida nafaqat davlat, balki jamiyat, institutlar va hatto shaxs ham ko‘rilmoqda.

Mazkur maqola global beqarorlik sharoitida mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining nazariy transformatsiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda mintaqaviy xavfsizlikning an‘anaviy talqinlari va zamonaviy konseptual yondashuvlari

o'rtasidagi farqlar ochib berilib, xavfsizlikning ko'p darajali va kompleks modeli asoslab beriladi. Shu orqali maqola xalqaro munosabatlar va xavfsizlik tadqiqotlaridagi mavjud nazariy bahslarni boyitishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlil. Xalqaro munosabatlar va xavfsizlikka oid tadqiqotlarda mintaqaviy xavfsizlik masalasi uzoq vaqt davomida tizimli nazariy bahslarning markazida bo'lib kelgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ushbu tushunchaning bir yoqlama talqin qilinishi ilmiy cheklovlarga olib kelganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, global siyosiy muhitning murakkablashuvi sharoitida mintaqaviy xavfsizlikni faqat harbiy yoki institutlarga bog'liq mexanizmlar orqali izohlash yetarli emasligi qayd etilmoqda [18. [Gabi, S.](#), [Julian, J.](#), [Christopher, D.](#) (2015)].

Zamonaviy adabiyotlarda mintaqaviy xavfsizlikni **ko'p qirrali tizim** sifatida ko'rish tendensiyasi kuchaygan. Ushbu yondashuvda global, mintaqaviy va milliy jarayonlar bir-biridan mustaqil emas, balki o'zaro ta'sirda shakllanadigan murakkab konfiguratsiya sifatida talqin qilinadi. Ayrim mualliflar mintaqalarni xavfsizlikning "oraliq darajasi" sifatida emas, balki nisbatan mustaqil siyosiy makon sifatida baholash zarurligini ta'kidlaydi [10. Börzel, T. A., & Zürn, M. (2021)]. Bu esa mintaqaviy xavfsizlikni universal model asosida emas, balki kontekstga bog'liq holda tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Nazariy manbalarda xavfsizlik tushunchasining **ijtimoiy va normativ o'lchovlariga** bo'lgan e'tibor ham sezilarli darajada oshgan. Konstruktivistik va post-pozitivistik yondashuvlar xavfsizlik siyosatlari obyektiv tahdidlar natijasi emas, balki diskursiv jarayonlar va siyosiy talqinlar mahsuli ekanini asoslab berdi [5. Balzacq, T. (2015)]. Bu qarashlar mintaqaviy xavfsizlikda qaysi tahdidlar muhim deb e'tirof etilishi va qaysi aktorlar legitim subyekt sifatida tan olinishi masalasini qayta ko'rib chiqishga olib keldi.

So'nggi yillarda global Janub va G'arb bo'lmagan mintaqalarga oid tadqiqotlar mintaqaviy xavfsizlikka oid G'arbgga asoslangan nazariyalar universalligini shubha ostiga qo'ymoqda. Ushbu manbalarda xavfsizlik tushunchasining tarixiy tajriba,

rivojlanish darajasi va madaniy omillar bilan uzviy bogʻliqligi koʻrsatib beriladi [15. Hameiri, S., Jones, L., & Heathershaw, J. (2020)]. Natijada mintaqaviy xavfsizlikni faqat kuch va institutlar bilan emas, balki ijtimoiy barqarorlik va legitimlik bilan bogʻliq jarayon sifatida talqin qilish zarurati ilgari surilmoqda.

Mazkur yoʻnalishdagi muhim nazariy hissalardan biri siyosiy fanlar doktori H.Sh. Sadibaqosev tomonidan taklif etilgan konseptual yondashuvlarda namoyon boʻladi. Muallif xalqaro xavfsizlik tizimlarini tahlil qilishda gʻarb paradigmalarining cheklanganligini koʻrsatib, xavfsizlikni turli sivilizatsion va mintaqaviy tajribalar asosida tushuntirish zarurligini asoslaydi. Xususan, mintaqaviy xavfsizlik masalalarida rivojlanish, siyosiy barqarorlik va tarixiy kontekstni hisobga olish global beqarorlik sharoitida muhim nazariy ustunlik berishi taʼkidlanadi [23. Sadibaqosev, H. Sh. (2024)].

Ushbu yondashuv mintaqaviy xavfsizlikni yagona nazariy modelga solish emas, balki moslashuvchan konseptual ramka doirasida talqin qilishga undaydi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining transformatsiyasi koʻpincha alohida elementlar — aktorlar, tahdidlar yoki institutlar doirasida tahlil qilinib, ularning oʻzaro bogʻliqligi yetarli darajada umumlashtirilmagan. Bu holat global beqarorlik sharoitida mintaqaviy xavfsizlikni izchil va integrativ nazariy model asosida tushuntirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqot aynan shu nazariy boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy xarakterga ega boʻlib, tadqiqotning metodologik asosini konseptual va analitik yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining mazmuniy oʻzgarishlarini izohlash, mavjud nazariy qarashlarni tizimlashtirish va ularni zamonaviy global beqarorlik sharoiti bilan bogʻlash imkonini beradi [19. Gerring, J. (1999)].

Tadqiqotda birinchi navbatda kontseptual tahlil metodi qoʻllanildi. Ushbu metod orqali “xavfsizlik”, “mintaqaviy xavfsizlik” va “global beqarorlik” tushunchalarining nazariy evolyutsiyasi tahlil qilindi. Kontseptual tahlil mintaqaviy xavfsizlikning anʼanaviy davlat-markazli va harbiy yoʻnaltirilgan talqinlari bilan zamonaviy koʻp

o'ltchovli yondashuvlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashga xizmat qildi. Xavfsizlik tushunchasining kengayishi va uning ijtimoiy, siyosiy hamda normativ o'ltchovlari mavjud ilmiy diskurslar asosida qayta talqin qilindi [26. Williams, M. C. (2003)].

Shuningdek, tadqiqotda nazariy taqqoslash metodi qo'llanildi. Ushbu metod doirasida xalqaro munosabatlar va xavfsizlik tadqiqotlaridagi asosiy nazariy maktablar — realizm, liberal institutsionalizm va konstruktivizm — mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan yondashuvlari nuqtai nazaridan solishtirildi. Nazariy taqqoslash orqali global beqarorlik sharoitida qaysi yondashuvlar xavfsizlikning murakkab va dinamik tabiatini yaxshiroq izohlash imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Mazkur metodologik yondashuvlar va ular asosida erishilgan asosiy nazariy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqlashtirish maqsadida, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va ularning kontseptual natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va asosiy nazariy natijalar.

Foydalanilgan metodlar	Metodlarning mazmuni	Tahlil obyekti	Asosiy nazariy natijalar
Kontseptual tahlil	Asosiy tushunchalarning mazmuniy chegaralarini aniqlash va qayta talqin qilish	“Mintaqaviy xavfsizlik”, “global beqarorlik” tushunchalari	Mintaqaviy xavfsizlik an'anaviy harbiy talqindan chiqib, kompleks va ko'p o'ltchovli kategoriya sifatida qayta aniqlandi
Nazariy taqqoslash	Turli nazariy maktablar yondashuvlarini solishtirish	Realizm, liberal institutsionalizm va konstruktivizm	Davlat-markazli va harbiy yondashuvlarning cheklanganligi nazariy jihatdan asoslandi
Diskursiv tahlil	Xavfsizlik atamasining ilmiy diskursdagi talqinini tahlil qilish	Xavfsizlikka oid nazariy adabiyotlar	Xavfsizlik tushunchasining normativ va ijtimoiy o'ltchovlari kuchayib borayotgani ko'rsatildi

Analitik sintez	Mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirish va yangi model ishlab chiqish	Global–mintaqaviy–milliy xavfsizlik darajalari	Mintaqaviy xavfsizlikning ko‘p darajali va dinamik konseptual modeli taklif etildi
-----------------	---	--	--

Bundan tashqari, analitik sintez metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilib, mintaqaviy xavfsizlikning transformatsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqildi. Analitik sintez xavfsizlikni statik holat emas, balki doimiy o‘zgaruvchan jarayon sifatida talqin qilishga imkon berdi. Natijada global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik darajalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik nazariy jihatdan asoslab berildi [11. Börzel, T. A., & Risse, T. (2016)].

Tadqiqotning manbalar bazasini asosan xalqaro tan olingan ilmiy ma’lumotlar bazalaridan nazariy maqolalar hamda ilmiy qo‘llanmalar tashkil etadi. Ushbu manbalar xavfsizlik tadqiqotlaridagi yetakchi konseptual bahslarni aks ettirishi hamda metodologik jihatdan yuqori akademik standartlarga mosligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotning asosiy metodologik cheklovi sifatida empirik verifikatsiyaning amalga oshirilmaganini qayd etish mumkin, biroq bu holat nazariy model ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotning mantiqiy doirasidan kelib chiqadi.

Tadqiqot natijalari. Mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining an’anaviy talqini xalqaro munosabatlar nazariyasida asosan davlat markazli va harbiy yo‘naltirilgan yondashuv doirasida shakllangan. Ushbu modelda xavfsizlik davlat suverenitetini saqlash, hududiy yaxlitlikni himoya qilish hamda mintaqaviy kuchlar muvozanatini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq holda talqin etiladi [25. Walt, S. M. (1991)].

Mintaqa xavfsizligi davlatlar o‘rtasidagi harbiy tahdidlar va ularning oldini olish mexanizmlari orqali baholangan.

An’anaviy yondashuvda hududiy barqarorlik mintaqaviy xavfsizlikning asosiy ko‘rsatkichi sifatida qaralgan bo‘lib, xavfsizlik tahdidlari ko‘pincha tashqi aktorlar yoki qo‘shni davlatlardan kelib chiqadigan harbiy xavf bilan cheklangan. Bunday talqin sovuq urush davrida nisbatan samarali bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgi global

beqarorlik sharoitida xavfsizlikning murakkab va ko'p qatlamli tabiatini to'liq aks ettira olmaydi [17. Jervis, R. (1998)].

Global beqarorlikning kuchayishi xavfsizlik tushunchasining mazmunan kengayishiga olib keldi. Zamonaviy nazariy yondashuvlarda xavfsizlik endilikda faqat harbiy tahdidlarning yo'qligi emas, balki siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli kategoriya sifatida talqin qilinmoqda [4. Baldwin, D. A. (1997)]. Ushbu yondashuv xavfsizlikni dinamik va o'zgaruvchan jarayon sifatida ko'rishga asoslanadi.

Global miqyosda harbiy bo'lmagan tahdidlarning ustunlashuvi mintaqaviy xavfsizlikning an'anaviy chegaralarini kengaytirdi. Transmilliy jinoyatchilik, majburiy migratsiya, pandemiyalar, iqlim o'zgarishi va kibertahdidlar mintaqaviy xavfsizlikni faqat davlatlararo munosabatlar doirasida tushuntirish mumkin emasligini ko'rsatmoqda [20. Kaldor, M. (2012)].

Natijada xavfsizlik tushunchasi inson xavfsizligi va jamiyat barqarorligi bilan tobora ko'proq bog'lanmoqda.

Global beqarorlik sharoitida mintaqaviy xavfsizlikning muhim xususiyatlaridan biri uning ko'p aktorli tusga ega bo'lishidir. Zamonaviy nazariyalarda xavfsizlikni ta'minlash jarayonida davlat bilan bir qatorda mintaqaviy tashkilotlar, nodavlat tuzilmalar, ekspert tarmoqlari va fuqarolik jamiyati institutlarining roli ortib borayotgani ta'kidlanadi [14. Hameiri, S., & Jones, L. (2015)]. Bu holat xavfsizlikni markazlashgan boshqaruvdan ko'ra ko'proq tarmoqli va muvofiqlashtirilgan tizim sifatida talqin qilishga olib kelmoqda.

Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikning moslashuvchan va preventiv (oldini oluvchi) xarakteri kuchaymoqda. Tahdidlarning oldini olish, xavf-xatarlarni erta aniqlash va inqirozlarga moslashuvchan javob qaytarish zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalarining asosiy elementlariga aylanmoqda [3. Aradau, C., & van Munster, R. (2007)]. Bu jarayon Baldwin, D. A. (1997).da xavfsizlikning normativ va ijtimoiy o'lchovlari, ya'ni umumiy qadriyatlar, ishonch va legitimlik masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Nazariy tahlil natijalariga ko'ra, mintaqaviy xavfsizlikning transformatsiyalashgan modeli global, mintaqaviy va milliy darajalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka asoslanadi. Ushbu modelda xavfsizlik alohida darajalarda emas, balki o'zaro ta'sir va bog'liqlik tizimi sifatida talqin qilinadi [21. Lake, D. A. (2009)]. Global beqarorlik mintaqaviy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatib, milliy xavfsizlik strategiyalarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur model doirasida xavfsizlik statik holat emas, balki doimiy shakllanib boruvchi ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida tushuniladi. Xavfsizlikning bunday talqini mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, normativ muvofiqlikni ta'minlash va uzoq muddatli barqarorlikka erishish imkonini beradi. Natijada mintaqaviy xavfsizlik global beqarorlik sharoitida barqarorlikni ta'minlovchi muhim nazariy va amaliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [2. Adler, E., & Greve, P. (2009)].

Muhokama. Nazariy natijalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy xavfsizlik nazariyalari global beqarorlik sharoitida mintaqaviy xavfsizlikning murakkab tabiatini to'liq izohlash imkoniyatiga ega emas. Xususan, realizm yondashuvi xavfsizlikni asosan harbiy salohiyat va kuchlar muvozanati bilan bog'lab, ijtimoiy va normativ omillarni ikkilamchi darajaga tushiradi. Ushbu **harbiy reduksionizm** zamonaviy tahdidlarning diffuz va ko'p qatlamli xarakterini tushuntirishda sezilarli metodologik cheklovlarga ega ekanligi namoyon bo'lmoqda [13. Dunne, T., Hansen, L., & Wight, C. (2016)].

Liberal yondashuv esa mintaqaviy va xalqaro institutlarning xavfsizlikni ta'minlashdagi rolga yuqori baho berib, ularning samaradorligini ba'zan haddan tashqari optimistik tarzda talqin qiladi. **Institutsional optimizm** real siyosiy raqobat, normativ qarama-qarshiliklar va ishonch tanqisligi mavjud sharoitda institutlarning cheklangan imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi [27. Zürn, M. (2018)]. Natijada liberal yondashuv ham global beqarorlik sharoitida yuzaga kelayotgan noan'anaviy xavfsizlik tahdidlarini to'liq qamrab ola olmaydi.

Zamonaviy nazariy yondashuvlar, xususan konstruktivizm va kritik xavfsizlik tadqiqotlari, mintaqaviy xavfsizlikni tushuntirishda an'anaviy nazariyalarga nisbatan

kengroq analitik imkoniyatlarni taklif etadi. Ushbu yondashuvlar xavfsizlikni ob'ektiv tahdidlar majmui sifatida emas, balki siyosiy diskurslar, ijtimoiy amaliyotlar va normativ qarashlar orqali shakllanuvchi hodisa sifatida talqin qiladi [6. Balzacq, T., Léonard, S., & Ruzicka, J. (2016)].

Xavfsizlikni **ijtimoiy konstrukt** sifatida tushuntirish mintaqaviy darajadagi xavfsizlik siyosatlarining qanday shakllanishini, qaysi tahdidlar ustuvor deb e'tirof etilishini va qaysi aktorlar legitim xavfsizlik subyekti sifatida tan olinishini izohlash imkonini beradi. Bu esa mintaqaviy xavfsizlikni faqat moddiy resurslar bilan emas, balki ma'no, identitet va legitimlik bilan bog'liq jarayon sifatida tahlil qilishga zamin yaratadi [16. Hansen, L. (2017)].

Nazariy muhokamalar mintaqaviy xavfsizlik tushunchasida muhim normativ siljish yuz berayotganini ko'rsatadi. Xavfsizlik endilikda faqat davlat manfaatlari va hududiy yaxlitlik bilan cheklanmay, jamiyat barqarorligi va shaxs farovonligini ham o'z ichiga olgan kengroq kategoriya sifatida talqin qilinmoqda [22. McDonald, M. (2018)]. Ushbu yondashuv mintaqaviy xavfsizlikni inson xavfsizligi konsepsiyasi bilan uzviy bog'lashga imkon beradi.

Shu bilan birga, xavfsizlik va rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, rivojlanishdagi nomutanosiblik va institutsional zaifliklar mintaqaviy beqarorlikning muhim manbalaridan biri sifatida qaralmoqda. Natijada xavfsizlik siyosatlari rivojlanish strategiyalaridan ajralgan holda samarali bo'la olmasligi haqidagi nazariy qarashlar mustahkamlanmoqda [12. Deloffre, M., & Heller, R. (2016)].

Shunga qaramay, mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining transformatsiyasi bir qator ochiq nazariy savollarni keltirib chiqarmoqda. Avvalo, xavfsizlik tushunchasining chegaralari masalasi dolzarbligicha qolmoqda: xavfsizlik qaysi nuqtadan boshlab haddan tashqari kengayib ketadi va analitik aniqligini yo'qotadi? [9. Bourbeau, P. (2018)]. Bu savol xavfsizlik tadqiqotlarida konseptual aniqlikni saqlab qolish zaruratini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, mintaqaviy xavfsizlikni universal nazariy modelga solish imkoniyati ham bahsli masala bo'lib qolmoqda. Turli mintaqalarning tarixiy, siyosiy va madaniy xususiyatlari xavfsizlikning yagona modeli mavjud bo'lishini murakkablashtiradi. Shu sababli zamonaviy nazariy yondashuvlar mintaqaviy xavfsizlikni universal sxema asosida emas, balki kontekstga sezgir va moslashuvchan nazariy model doirasida tushuntirish zarurligini ilgari surmoqda [7. Buzan, B., & Lawson, G. (2015)].

Xulosa. Mazkur tadqiqot global beqarorlik sharoitida mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining mazmunan va funksional jihatdan chuqur transformatsiyaga uchrayotganini nazariy asosda ko'rsatib berdi. Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, global siyosiy tizimdagi noaniqlik, tahdidlarning diffuzlashuvi va aktorlar tarkibining kengayishi mintaqaviy xavfsizlikni an'anaviy davlat-markazli va harbiy yo'naltirilgan talqin doirasida tushuntirish imkoniyatini keskin cheklamoqda. Natijada mintaqaviy xavfsizlik tushunchasi global beqarorlik ta'sirida tubdan qayta shakllanmoqda.

Tadqiqotning asosiy xulosalaridan biri shundan iboratki, xavfsizlikka endilikda statik holat yoki yakuniy natija sifatida emas, balki doimiy ravishda shakllanib boruvchi, moslashuvchan va ko'p darajali jarayon sifatida qaralmoqda. Mintaqaviy xavfsizlik global, mintaqaviy va milliy darajalar o'rtasidagi uzviy o'zaro ta'sir mahsuli bo'lib, uning samaradorligi nafaqat harbiy resurslarga, balki ijtimoiy barqarorlik, normativ uyg'unlik va institutsional moslashuvchanlikka ham bog'liq ekanligi aniqlandi.

Mazkur maqolaning ilmiy hissasi sifatida mintaqaviy xavfsizlikning transformatsiyalashgan nazariy modeli taklif etildi. Ushbu model xavfsizlikni ko'p o'lchovli, ko'p aktorli va dinamik tizim sifatida talqin qilib, an'anaviy xavfsizlik nazariyalarining cheklovlarini bartaraf etishga qaratilgan. Taklif etilgan yondashuv mintaqaviy xavfsizlikni global beqarorlik sharoitida tahlil qilish uchun konseptual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot to'liq nazariy xarakterga ega bo'lgani sababli, kelgusidagi izlanishlar uchun muhim yo'nalishlar ochib beradi. Xususan, taklif etilgan

nazariy modelni empirik ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazish, alohida mintaqalar misolida uning amaliy qo'llanilishini baholash hamda mintaqaviy xavfsizlikning kontekstga bog'liq xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa mintaqaviy xavfsizlik tadqiqotlarining nazariy va amaliy integratsiyasiga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Acharya, A. (2014). The end of American world order. Polity Press.
https://www.researchgate.net/publication/342345330_The_End_of_American_World_Order_Ch1
2. Adler, E., & Greve, P. (2009). When security community meets balance of power. *Review of International Studies*, 35(1), 59–84
3. Aradau, C., & van Munster, R. (2007). Governing terrorism through risk. *European Journal of International Relations*, 13(1), 89–115.
<https://doi.org/10.1177/1354066107074290>
4. Baldwin, D. A. (1997). The concept of security. *Review of International Studies*, 23(1), 5–26.
<https://doi.org/10.1017/S0260210597000053>
5. Balzacq, T. (2015). The three faces of securitization. *European Journal of International Relations*, 21(1), 1–25. DOI: 10.1177/1354066105052960
6. Balzacq, T., Léonard, S., & Ruzicka, J. (2016). 'Securitization' revisited. *Review of International Studies*, 42(3), 494–531.
<https://doi.org/10.1017/S0260210515000622>
7. Buzan, B., & Lawson, G. (2015). The global transformation. *Cambridge University Press*.
<https://doi.org/10.1017/CBO9781139567167>
8. Buzan, B., & Wæver, O. (2003). Regions and powers: The structure of international security. Cambridge University Press.
<https://doi.org/10.1017/CBO9780511491252>

9. Bourbeau, P. (2018). A genealogy of resilience. *International Political Sociology*, 12(1), 19–35. <https://doi.org/10.1093/ips/olx026>
10. Börzel, T. A., & Zürn, M. (2021). Contestations of the liberal international order. *International Organization*, 75(2), 282–305. <https://hdl.handle.net/10419/249777>
11. Börzel, T. A., & Risse, T. (2016). Dysfunctional state institutions, trust, and governance in areas of limited statehood. *Regulation & Governance*, 10(2), 149–160. <https://doi.org/10.1111/rego.12092>
12. Deloffre, M., & Heller, R. (2016). Security governance and the internationalization of humanitarian NGOs. *International Studies Review*, 18(1), 91–113. <https://doi.org/10.1093/isr/viv018>
13. Dunne, T., Hansen, L., & Wight, C. (2016). The end of International Relations theory? *European Journal of International Relations*, 22(1), 3–22. <https://doi.org/10.1177/1354066115596643>
14. Hameiri, S., & Jones, L. (2015). Global governance as state transformation. *Political Studies*, 63(1), 1–19. <https://doi.org/10.1111/1467-9248.12092>
15. Hameiri, S., Jones, L., & Heathershaw, J. (2020). Reframing the rising powers debate: state transformation and foreign policy DOI: [10.4324/9781003020042-1](https://doi.org/10.4324/9781003020042-1)
16. Hansen, L. (2017). Reading comics for the field of International Relations. *European Journal of International Relations*, 23(3), 581–608. <https://doi.org/10.1177/1354066116678355>
17. Jervis, R. (1998). System effects: Complexity in political and social life. *International Studies Quarterly*, 42(4), 773–776. <https://doi.org/10.1111/0020-8833.00107>
18. Gabi, S., Julian, J., Christopher, D. (2015). *The transformation of security and security studies*. Routledge. <https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781315707839-1/transformations-security-security-studies-gabi-schlag-julian-junk-christopher-daase>

19. Gerring, J. (1999). What makes a concept good? A criterial framework for understanding concept formation in the social sciences. *Polity*, 31(3), 357–393. <https://doi.org/10.2307/3235246>
20. Kaldor, M. (2012). *New and old wars: Organized violence in a global era* (3rd ed.). Polity Press. <https://politybooks.com/bookdetail/?isbn=9780745656719>
21. Lake, D. A. (2009). Regional hierarchy: Authority and local international order. *Review of International Studies*, 35(S1), 35–58
22. McDonald, M. (2018). Climate change and security. *International Politics*, 55(2), 153–166. <https://doi.org/10.1057/s41311-017-0115-8>
23. Sadibaqosev, H. Sh. (2024). Conceptual approaches to effective systems of international security. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 4(6), 315–325. DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-06-40>
24. United Nations. (2023). A new agenda for peace. United Nations Secretary-General Policy Brief. https://www.un.org/climatesecuritymechanism/sites/default/files/2025-06/our-common-agenda-policy-brief-new-agenda-for-peace-en_0.pdf
25. Walt, S. M. (1991). The renaissance of security studies. *International Studies Quarterly*, 35(2), 211–239. <https://doi.org/10.2307/2600471>
26. Williams, M. C. (2003). Words, images, enemies: Securitization and international politics. *International Studies Quarterly*, 47(4), 511–531. <https://doi.org/10.1046/j.0020-8833.2003.00277.x>
27. Zürn, M. (2018). A theory of global governance. *Oxford University Press*. <https://doi.org/10.1093/oso/9780198819976.001.0001>